

**ZAMONAVIY O'ZBEK NASRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI****Ruzimbayeva D***Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi*

So'nggi yillarda o'zbek adabiy jarayonida, ayniqsa, nasr yo'nalishida sezilarli yangilanishlar kuzatilmoqda. Bu yangilanishlar, eng avvalo, insonning ichki olami, ruhiy kechinmalari, individual kechinmalari va shaxsiy iztiroblarining badiiy talqini orqali o'z ifodasini topmoqda. Shu ma'noda, adabiyotshunos N. Rahimjonov fikrlari zamonaviy o'zbek adabiyotining asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab beradi: "Istiqlol adabiyotining yetakchi fazilatlarini qatorida milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor tuyg'ularining shakllanishi, badiiy tafakkur madaniyatining sifat jihatdan o'zgarishi va nihoyat, millat birligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyaning ustuvorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda"⁴⁰.

Bugungi adabiy muhitda nafaqat an'anaviy mazmuniy yo'nalishlar davom ettirilmoqda, balki badiiy shakl, obrazlar tizimi, tasvir usuli va g'oya-mavzu doirasida ham yangilanishlar jarayoni faol kechmoqda. Bu esa milliy nasrimizda poetik tafakkurning chuqurlashuvi, insonni shunchaki jamiyat mahsuli emas, balki mustaqil fikr, ruhiy kechinma va his-tuyg'ular sohibi sifatida talqin etishga intilishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi nasrning asosiy diqqat markazi - bu odam, uning hayoti emas, balki hayotga munosabati, voqealarga ruhiy yondoshuvi, ichki drammatizmini tahlil qilishga qaratilgan.

Nasr poetikasini tadqiq etishda o'zbek hikoyachiligining rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratish ayni muddaodir. XX asr boshlarida A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat ijodida jamiyatdagi jaholat, zulm va ilmsizlik qoralanib, jadidchilik g'oyalari bilan uyg'un holda ma'rifatparvarlik ruhi tarannum etilgan bo'lsa, Oybek, A.Qahhor, G'afur G'ulom nasrida o'tmish voqealari, oddiy insonlar fojiasi, ijtimoiy tengsizlik masalalari realistik metod asosida yoritilgan. Ayniqsa, A.Qahhor hikoyalaridagi badiiy soddalik, jonli til va tasvirning kuchi adabiyotshunoslar tomonidan yetarlicha e'tirof etilgan.

Mazkur davr yozuvchilari ijodiy maktabining davomchilari bo'lmish Asqad Muxtor, Said Ahmad, P.Qodirov, O'tkir Hoshimov kabi adiblar esa jamiyat va inson munosabatlarini, ruhiy kechinmalarni, turg'unlik davrining inson ruhiyatiga solgan jarohatlarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlashga e'tibor qaratdilar. Bu jarayonda adabiy-tanqidiy fikr ham faol ishtirok etdi. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, D.Quronov kabi olimlar tomonidan XX asr o'zbek realistik nasrining asosiy muammolari - mavzu va g'oya uyg'unligi, obrazlilik, badiiylilik, hayotiy haqiqat masalalari chuqur tahlil qilindi.

⁴⁰ Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot (Adabiy – estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). –T.: "O'qituvchi", 2012. 5.11.



Istiqlol davriga kelib, o'zbek nasri mafkuraviy cheklovlardan holi bo'lib, ijodiy erkinlikka erishdi. Bu erkinlik yozuvchilarga o'z asarlarida inson ruhiyatining eng nozik jihatlarini, botiniy olamini, o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollik kabi falsafiy masalalarni ko'tarish imkonini berdi. Endilikda voqealikning natijasi emas, balki sabablar tizimi - ya'ni inson ruhiyati, ichki motivlari, ong osti kechinmalari birinchi planga chiqmoqda. Bu esa zamonaviy o'zbek nasrining estetik tamoyillarida sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganini anglatadi.

Zamonaviy yozuvchilar - Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam va boshqalar o'z asarlarida inson ruhiyatini teran ifodalashga, shaxs ichki kechinmalarini badiiy vositalar bilan yoritishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Ular hikoyachilikda ramziy-majoziy uslub, ichki monolog, ong oqimi, retrospektiv talqin, falsafiy-fikriy qatlamlarni ilgari surish orqali o'zbek nasrining poetik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdilar.

Shuningdek, bu davrda yozilgan hikoyalarda an'anaviy syujet qurilishidan voz kechilib, muallifning estetik qarashlari, badiiy anglash darajasi va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lgan noan'anaviy struktura, zamon va makon bog'liqligining nisbiyligi, ichki vaqt oqimining tasviri, ruhiy izlanishlar markaziy o'ringa chiqmoqda. Endilikda hikoyalar voqelikni tasvirlash emas, balki uni idrok etish, anglash, talqin qilish vositasiga aylanmoqda.

Umumiy qilib aytganda, zamonaviy o'zbek nasri nafaqat shakl jihatidan, balki mazmun va g'oya, estetik qarashlar va badiiy ifoda usullari jihatidan ham yangilanish bosqichiga qadam qo'ydi. Inson, uning ruhiyati, dardlari, quvonch va izzatoblari adabiyotning markaziy predmetiga aylandi. Bu esa o'zbek nasrining ichki imkoniyatlarini ochib, uni jahon adabiy jarayonlari bilan mushtarak yo'nalishga olib chiqmoqda.

Zamonaviy o'zbek nasrining estetik barkamolligi, badiiy saviyasi va poetik imkoniyatlari ko'p jihatdan asardagi badiiyatni ta'minlovchi unsurlarga bog'liqdir. Har qanday badiiy matnning estetik ta'sir kuchi, avvalo, uning g'oya-mavzu yuksakligi, badiiy obrazlar tizimi, kompozitsion yaxlitligi, til va uslubning boyligi, ramziy-falsafiy qatlamlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bugungi nasrda aynan mana shu jihatlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Birinchidan, nasrda badiiyat, eng avvalo, asarning ichki mazmuni - badiiy g'oya orqali namoyon bo'ladi. Yozuvchi muayyan g'oyani ilgari surish orqali o'z estetik idealini, hayotga, insoniyatga bo'lgan qarashini aks ettiradi. Istiqlol davri nasrida insonning ichki kechinmalari, ruhiy uyg'onishi, o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollikka intilish kabi falsafiy yo'nalishdagi g'oyalar yetakchi o'rin tutmoqda. Bu esa nasrning chuqur qatlamlarini ochishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, nasriy asarning badiiyligi, shubhasiz, u yerda yaratilgan obrazlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Realistik obrazlar, ularning ichki ziddiyatlari, ruhiy

holati, tafakkur darajasi, hayotga munosabati orqali yozuvchi ijtimoiy haqiqatni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi o'z obrazlarida ko'proq shaxsiy individualistik yondashuv, ichki dunyo tasviri, psixologik portret yaratishga intiladi. Endilikda qahramonlar turkumiy emas, balki alohida shaxs sifatida, o'ziga xos mentalitet va ruhiy olam bilan tasvirlanmoqda.

Uchinchidan, badiiy asarning ichki tuzilmasi - uning kompozitsiyasi va syujeti ham badiiyatning muhim unsurlaridandir. An'anaviy syujet tuzilmasidan farqli o'laroq, bugungi nasrda epizodik syujetlar, ichki dramatism, retrospektiv tasvir, paradoksal tafakkur oqimi orqali ruhiy jarayonlarning dinamikasi ochib beriladi. Bu esa o'quvchining diqqatini voqelikdan ko'ra, qahramon ongidagi ichki voqealarga qaratishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, til - nasrning eng kuchli estetik qurolidir. Badiiy til, uning obrazlilik darajasi, iboraviy boyligi, metafora, tashbeh, personifikatsiya, ironik va kinoyaviy usullar, ichki monolog va dialoglar orqali nasrda badiiylik yuksak darajada namoyon bo'ladi. Erkin A'zamning noan'anaviy poetikasi, Xurshid Do'stmuhammadning falsafiy-ramziy tili, Nazar Eshonqulning dramatik-satroral uslubi bunga yorqin misoldir. Asar tili obrazli, milliy ruhga yaqin va o'quvchiga ta'sirchan bo'lishi - badiiyatning eng muhim garovidir.

Beshinchidan, zamonaviy o'zbek nasrida ramziy va majoziy ifoda vositalari keng qo'llanilmoqda. Bular ko'pincha ijtimoiy, axloqiy, falsafiy fikrlarni badiiy shaklda yetkazish imkonini beradi. Ramz va majoz vositasida yozuvchi yashirin g'oyalarni o'quvchiga chuqurroq yetkazishga erishadi. Bu esa asarning poetik qatlamini boyitadi, uni ko'p qavatli mazmunga ega qiladi.

Oltinchidan, psixologik tahlil - badiiy asarning chuqurligini belgilovchi asosiy omildir. Bugungi nasrda tashqi harakatdan ko'ra, qahramonning ichki olami, hissiy kechinmalari, o'z-o'ziga bergan savollari va ichki ovozi ko'proq ilgari surilmoqda. Bu jihat A.Qahhorning "Dahshat", Erkin A'zamning "So'nggi o'q" kabi hikoyalarida yorqin namoyon bo'lgan. Umuman, Zamonaviy nasr o'z vazifasini faqat voqeani hikoya qilish bilangina cheklamaydi. U hayotiy hodisalarning mohiyatini ochishga, insoniyat, vatan, hayot, o'lim, vaqt, taqdir kabi abadiy mavzularni falsafiy jihatdan talqin etishga intiladi. Bu esa asarning badiiy-estetik darajasini keskin oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek nasrining badiiy kuchi va estetik ta'sirchanligi ko'p jihatdan uning g'oyaviy-estetik yo'nalishi, obrazlar tizimi, ichki psixologik struktura, til va ifoda usullari, ramziy va falsafiy qatlamlari bilan belgilanadi. Har bir asar o'z ichki poetik qonuniyatlariga tayanadi va aynan mana shu badiiy jihatlar orqali o'quvchining tafakkuriga, qalbiga yo'l topadi. Bugungi nasr adabiyotimizda inson ruhiy olamini o'rganish, o'zlikni anglash va shaxsiy kechinmalarni estetik tilda ifodalash orqali o'ziga xos badiiy maktabni shakllantirmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Улуғбек Ҳамдам. Рухни уйғотувчи сўз.-Тошкент: “Turon zamin ziyo”.2007. Б. 7.
2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B.141.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2002. 38-bet.
4. Умуров Ҳ. Бадий ижод асослари.–Тошкент: “Ўзбекистон”. 2001. Б. 41.
5. Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: “Фан”. 1983;

